



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 156 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari	22
<i>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</i>	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida	26
<i>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</i>	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil	29
<i>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</i>	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish	33
<i>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish	37
<i>Nusharov Bobir Bolbekovich</i>	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя	41
<i>Олимова Азиза Кахрамоновна</i>	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari	47
<i>Tursunboyeva Kamola Iloxmon qizi</i>	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	50
<i>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</i>	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari	54
<i>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi	59
<i>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli	64
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	69
<i>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqitirishda integrativ usullardan foydalanish	73
<i>Ergasheva Nigora Erkinovna</i>	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects	76
<i>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	81
<i>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</i>	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni	85
<i>Baxramova O'ramol Uralovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati	88
<i>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</i>	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari	92
<i>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</i>	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli	96
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari	100
<i>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</i>	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies	104
<i>Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi</i>	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili	109
<i>Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna</i>	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	112
<i>Qodirova Mavluda Maxodir qizi</i>	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	116
<i>Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	123
<i>Raimqulova Sojida Abdusaid qizi</i>	
Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
<i>Shermatova Yakut Sabirovna</i>	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling	129
<i>Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish	132
<i>Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna</i>	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
<i>Turdiyeva Zilola Jalilovna</i>	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni	138
<i>Xalikova Umida Mirovna</i>	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni	143
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi</i>	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
<i>Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi</i>	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
<i>Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна</i>	



O'SMIRLAR O'RTASIDA KIBERBULLING



Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna

Toshkent xalqaro kimyo universitetining 2-kurs magistranti

Annotatsiya: So'nggi yillarda internet va raqamli texnologiyalar barcha sohalar qatori ta'lim, muloqot va madaniyat sohalarida ham chuqur ildiz otmoqda. Ayniqsa, ularning yangi avlod – o'smirlar hayotining ajralmas qismiga aylangani ko'pchilikka ayon. Raqamli texnologiyalar hayotni yengillashtirish, axborotga bo'lgan ehtiyojni qondirish hamda ijtimoiy muloqotni kengaytirish imkonini bersa-da, internetning salbiy jihatlari ham mavjudligi inkor etilmaydi. Jumladan, so'nggi yillarda o'smirlar o'rtasida keng tarqalib borayotgan muammolardan biri – kiberbulling fenomenini ham aynan shu texnologik rivojlanish natijasida yuzaga kelgan muammolar sirasiga kiradi. Ushbu hodisaning paydo bo'lishi va kengayishi internetdan foydalanayotgan yoshlar orasida psixologik xavf-xatarlar, ijtimoiy izolyatsiya, ruhiy tushkunlik hamda o'z-o'ziga ishonchning pasayishi kabi salbiy oqibatlarni kuchaytirmoqda.

Kalit so'zlar: kiberbulling, o'smirlar, internet xavfsizligi, psixologik ta'sir, ma'naviy himoya, raqamli texnologiyalar, jamiyat, kommunikatsiya, axborot madaniyati, tajovuz.

Abstract: In recent years, the Internet and digital technologies have taken deep root in various spheres, including education, communication, and culture. It is widely recognized that they have become an integral part of the lives of the younger generation – teenagers. Although digital technologies facilitate everyday life, meet the need for information, and expand social interaction, it cannot be denied that the Internet also has its dark sides. In particular, one of the problems that has become widespread among teenagers in recent years is the phenomenon of cyberbullying, which is among the issues arising from technological development. The emergence and spread of this phenomenon contribute to increasing the negative consequences of Internet use among young people, such as psychological risks, social isolation, depression, and low self-esteem.

Key words: cyberbullying, teenagers, Internet safety, psychological impact, moral protection, digital technologies, society, communication, information culture, aggression.

Аннотация: В последние годы интернет и цифровые технологии глубоко укоренились во всех сферах, включая образование, коммуникацию и культуру. Многим очевидно, что они стали неотъемлемой частью жизни нового поколения – подростков. Хотя цифровые технологии облегчают жизнь, удовлетворяют потребность в информации и расширяют социальное общение, нельзя отрицать наличие у интернета и темных сторон. В частности, одной из проблем, получивших широкое распространение среди подростков в последние годы, является феномен кибербуллинга, который также относится к числу проблем, возникших в результате данного технологического развития. Возникновение и распространение этого явления способствует усилению негативных последствий использования интернета среди молодежи, таких как психологические риски, социальная изоляция, депрессия и неуверенность в себе.

Ключевые слова: кибербуллинг, подростки, безопасность в интернете, психологическое воздействие, моральная защита, цифровые технологии, общество, коммуникация, информационная культура, агрессия.

KIRISH

Kiberbulling – grekcha “kiber” va inglizcha “bullying” (tajovuz, tazyiq) so'zlarining birikmasidan iborat bo'lib, internet tarmog'i, ijtimoiy media, messenjerlar yoki boshqa raqamli kommunikatsiya vositalari orqali ataylab kimnidir haqorat qilish, kamsitish, ta'na qilish, tuhmat qilish hamda boshqa ruhiy zo'ravonlik usullari bilan unga tazyiq o'tkazish jarayonidir. O'smir yoshlar orasida bunday xatti-harakatlar psixologik rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatib, jismoniy tajovuzning zamonaviy ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Kiberbullingning asosiy xavfi shundaki, ushbu faoliyat odatda anonimlik pardasi ostida sodir bo'ladi, natijada kiberjinoyatchining harakatlari ko'pincha javobsiz qoladi hamda jinoyat izlarini yashirish imkoniyati kengayadi.

Kiberbullingning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Onlayn muloqotda hissiy javobning kechikishi, virtual aloqa vositalarining chegarasizligi, zamonaviy yoshlarning internetga bo'lgan cheksiz ishonchi va undan faol foydalanishi natijasida kiberbullingning o'smirlar ongiga salbiy ta'siri yanada kuchaymoqda. Virtual makonning ochiqqligi, yoshlar orasida tezkor axborot almashinuvi hamda internetdan qochib qutulishning deyarli imkonsizligi so'nggi yillarda ushbu muammoning jiddiyligi va keng ko'lamliligini ko'rsatmoqda. Raqamli vositalar orqali amalga oshiriladigan tazyiq, haqorat, tahdid, ko'pchilikka oshkora qilingan soxta yoki shaxsiy ma'lumotlar, tuhmat va boshqa usullar o'smir ruhiyatida chuqur iz qoldirishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'smirlik yoshi – inson ruhiyatining eng sezgir, o'zgaruvchan va nozik davri sanaladi. Bu yoshda shaxs yetuklashishga, jamoa ichida o'z o'rnini topishga, ijtimoiy tasdig'ini mustahkamlashga hamda mustaqil qarorlar qabul qilishga intiladi. Oila, maktab va do'stlar davrasidagi munosabatlar orqali shakllanadigan ushbu yosh toifasi uchun ijtimoiy media o'ziga xos makon sifatida yangi muammolar, noqulayliklar va psixologik tazyiqlarni yuzaga chiqarmoqda. O'smirlar ko'pincha o'z tengdoshlarining bahosidan, tarmoqda bildiriladigan ommaviy mulohazalardan yoki qo'pol muomaladan o'zini chetda his eta olmaydi. Chunki internet asrida bu yosh toifasi ko'proq shaxsiylashtirilgan virtual makonda faoliyat yuritadi. Bunday muhit va vaziyatda kiberbulling ko'rinishlari turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ayrim hollarda bu jarayon oddiy masxara qilish, tahdid yo'llash, chaqiriqlar tarqatish yoki soxta maqolalar, suratlar hamda videolarni joylashtirish orqali ijtimoiy tazyiq o'tkazish ko'rinishida kechadi.

Qolaversa, kiberbulling holatlari ko'pincha birinchi qarashdayoq sezilmasligi mumkin, biroq uning oqibat-lari og'ir ruhiy jarohatlar, depressiya, yolg'izlik va ijtimoiy mavqeining pasayishida namoyon bo'ladi. Kiberji-noyatchilar odatda anonimlik asosida harakat qiladi va jabrlanuvchi bilan to'g'ridan-to'g'ri ochiq muloqotdan qochadi. Bunday "parda" ortidagi tazyiq o'smirlarning ruhiy muvozanatiga jiddiy putur yetkazadi ^[1].

O'smirlarning internet makoniga chuqur kirib borishi hamda ijtimoiy tarmoqlardan o'ziga xos platforma sifa-tida foydalanishi natijasida kiberbulling holatlari zamonaviy jamiyat uchun dolzarb masalaga aylandi. Maktab psixologlari, pedagoglar va ota-onalar tomonidan ushbu muammoga yetarli e'tibor qaratilmayotgan bo'lishi mumkin. Bu esa kiberbulling tufayli jabrlanuvchi o'smirlarning muammolari o'z vaqtida aniqlanmasligiga, ularning ruhiy va jismoniy sog'lig'i uchun tahdid tug'diruvchi omillarning kuchayishiga sabab bo'ladi. Virtual makonda o'smirlar o'rtasida sodir bo'layotgan tahdidlar, haqoratlar va boshqa salbiy xatti-harakatlarni aniqlash hamda ularga nisbatan chora-tadbirlar ko'rish butun jamiyat oldida turgan vazifalardan biridir ^[2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'smirlar orasidagi kiberbulling psixologik, ma'naviy va ijtimoiy-psixologik zararlar keltirib chiqarishi mumkin. Bu jarayonda ijtimoiy tarmoqlardagi haqoratli sharhlar, tahdidlar, tuhmatli yozuvlar o'smirlar chuqur ruhiy jarohat-lantiradi. O'z navbatida, bu holat oilaviy, maktab va keng jamoa muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'smir do'stlari va yaqinlarining e'tibori hamda ko'magidan bebahra qolib, asta-sekin o'zini yolg'iz, ilajsiz va himoyasiz his eta boshlaydi. Bu holatning og'ir oqibati esa ba'zan o'z joniga qasd qilish darajasigacha yetib borishi mumkin. Yana bir muhim jihat – o'smirlarning jamiyatda o'z o'rnini topish va o'ziga xos identifikatsiyalanish jarayonida yuzaga keladigan ruhiy tushkunlik, stress hamda depressiyadir. Virtual dunyo qulay va xavfsiz muhit emas, unda har bir jabrlanuvchi doimiy ravishda kuzatuv va psixologik bosim ostida qoladi. Kiberbulling natijasida o'smir o'z hayotidan, planshet yoki telefondan, internetdan, shaxsiy profilidan voz kechishni istab, undan chetlashishga harakat qiladi, ammo zamonaviy jamiyatda bunday cheklanish yanada kuchli ijtimoiy izolyatsiyaga olib keladi. Bu muammoning yana bir tomoni – atrof-muhitdagi insonlar, ota-onalar, pedagoglar yoki yaqinlar tomonidan yetarli va to'g'ri yordam ko'rsatilmasligidir ^[3].

Kiberbulling holatida ko'pgina o'smirlar o'z muammolari haqida kattalarga, ota-onalarga yoki o'qituvchi-larga murojaat qilmaydi. Buning asosiy sababi ko'pincha xavotir, jur'atsizlik, masxara bo'lishdan qo'rquv, muammolarini tashqi muhitga oshkor etishdan tortinish hamda nima qilishni bilmaslikdan kelib chiqadi. Yana bir asosiy sabab – jamiyatda kiberbullingga qarshi kurashishning puxta mexanizmlari yetarli darajada shakllan-maganligidir.

To'g'ri, ba'zi davlatlarda aniq yuridik asoslar mavjud bo'lib, qonun va normativ hujjatlarda bunday salbiy xatti-harakatlar noqonuniy deb e'tirof etiladi hamda unga qarshi tezkor choralar ko'riladi. Biroq o'smirlar o'rta-sida internetdan foydalanish madaniyatini mustahkamlash, oilaviy va maktab darajasida muntazam tushun-tirish ishlarini olib borish, seminarlar, davra suhbatlari, psixologik treninglar hamda zamonaviy texnologiyalar yordamida monitoring jarayonlarini tashkil etish ishlari yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi kuzatilmoqda. Jamiyatda kiberbullingga qarshi kurashish kompleks strategiyani talab etadi. O'smirlarning ongida axloqiy, madaniy va ijtimoiy immunitetni shakllantirish, og'ir ijtimoiy bosim va tahdid ostida qolayotgan shaxsni himoya



qilish maqsadida oila, maktab va jamiyat bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishi zarur. Psixologlarning fikricha, kiberbullingdan jabrlangan o'smirlar ruhiy barqarorligini tezda yo'qotishga, atrofdagilar, do'stlar va hatto oilaga nisbatan ishonchsizlikning kuchayishiga moyil bo'lib boradi. Bu esa zamonaviy taraqqiyotga to'siq bo'lib, yosh avlodning rivojlanishiga jiddiy tahdid tug'diradi ^[4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Kiberbullingning oldini olish va unga qarshi samarali kurash yo'llaridan biri – internet va raqamli vositalardan foydalanish madaniyatini mustahkamlashdir. Ota-onalar va ustozlar bolaga yoshligidan onlayn muhitda o'zini tutish, o'z shaxsiy xavfsizligini ta'minlash, shubhali va nomaqbul shaxslar bilan muloqotda ehtiyotkor bo'lish, shaxsiy axborot va suratlarni himoya qilish madaniyatini o'rgatishlari zarur. Ijtimoiy tarmoqlar va virtual makonlarda bo'layotgan tajovuz va tazyiqlar yuzasidan darhol murojaat etish uchun ochiq platformalar, "ishonch liniyalari", anonim ko'mak xizmatlarini tashkil etish, jamiyat vakillarini faol va hushyor bo'lishga chaqirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab muassasalarida o'quvchilarga kiberxavfsizlik, internet tahdidlari, onlayn etika va xavfli axborotdan himoyalanih haqida muntazam tushuntirish ishlari olib borilishi lozim. O'quvchi o'zini ishonchli va ochiq muhitda his qilishi, muammolari yuzasidan har doim qabul qilinishi mumkinligini bilishi muhimdir. Kiberbullingga qarshi kurashda ota-onalar, ustozlar va psixologlarning hamjihatligi, jaholat, zo'ravonlik va tahdidga qarshi murosasiz pozitsiyasi katta samara beradi ^[5].

Zamonaviy jamiyatda kiberbulling holatlari nafaqat o'smirlarning, balki umumiy axborot madaniyati va jamiyat taraqqiyotining jiddiy muammosiga aylanib bormoqda. Agar bugun bu muammoni faol harakat, bo'shashtirilmaydigan profilaktika, muntazam bilim va ko'mak yordamida hal qila bilsak, ertaga barkamol, intellektual va ishonchli yoshlar avlodi yetishishi kafolatlanadi. Kiberbullingni bartaraf etishda jamiyatning barcha vakillari, pedagoglar, ota-onalar hamda davlat organlari faol ishtirokchi va nazoratchi bo'lishi lozim. Psixologik va ma'naviy himoya tizimi – jamiyatda kiberbullingning oldini olishning eng samarali yo'llaridan biridir. Shundan kelib chiqib, ta'lim muassasalarida, oila muhitida va ommaviy axborot vositalari orqali kiberbullingga qarshi chora-tadbirlarni kompleks ravishda olib borish, yosh avlodga internetdan ongli foydalanishni o'rgatish bo'yicha targ'ibot ishlarining ahamiyatini oshirish zarur. Milliy va xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, zamonaviy yoshlarni kiberhujum va ruhiy bosimdan asrash, zamonaviy texnologiyalardan xabardor, mustahkam ruhiyatli, axloqan pok va demokratik qadriyatlarga sodiq barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Kiberbullingning oldini olish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar va amaliy dasturlar yaratish, onlayn xavfsizlik qoidalarini ishlab chiqish hamda internetda xatti-harakat madaniyatini ilgari surish orqali jamiyatning umumiy farovonligi ta'minlanadi. Barcha bo'shliqlarni to'ldiradigan asosiy vosita – har bir inson, xususan, o'quvchilar, ularning oilalari va maktab jamoasi o'rtasida ochiq muloqotni yo'lga qo'yishdir; kiberbullingdan jabrlanganlarning muammolarini bevosita va samarali hal etishda hokimiyat, psixologlar va maxsus xizmatlarning birgalikdagi harakati muhim ahamiyat kasb etadi ^[6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, o'smirlar o'rtasidagi kiberbulling – zamonaviy jamiyat uchun dolzarb, keng ko'lamli va muammoli fenomen sanaladi. Uning salbiy oqibatlarini nafaqat o'smirlar, balki ularning atrofidagi barcha insonlar hamda jamiyat taraqqiyotiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammoga sust qarash va uning e'tibordan chetda qolishi o'smirlarimizning kelajagiga xavf tug'diradi. Shuning uchun har bir oila, maktab, pedagogik muassasa va jamoatchilik internet madaniyatiga alohida urg'u berib, yosh avlod uchun doimo ko'makchi, himoyachi va yo'l-yo'riq bera oladigan muhit yaratishi zarur. Zero, sog'lom va farovon jamiyat taraqqiyotining asosi ham axloqan pok, ruhiy tahlkaga duch kelmagan, raqamli dunyoning barcha xavflaridan xabardor hamda o'zini himoya qila oladigan barkamol avlodni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston respublikasi ta'lim kodeksi.
2. "Kiberbulling: asosiy tushunchalar va oldini olish yo'llari". – Respublika ijtimoiy-psixologik markazi nashri. – Toshkent, 2022.
3. Nurmatova D. "Onlayn xavfsizlik va yoshlar". – Ma'naviyat, 2021.
4. Rustamova M. "Internet muhitida ruhiy muvozanat va uning xavfsizligi". – Toshkent, 2020.
5. Samekto Y. "Yoshlarni psixologik zo'ravonlikdan himoya qilish masalalari" (maqola). – Yoshlar va jamiyat jurnali, 2019.
6. Livingstone S., Smith P. K. Children and young people's experiences of cyberbullying in the UK. – 2020.
7. Patchin J. W. Cyberbullying prevention and response: Expert perspectives. – Routledge, 2012.
8. Wang J., Iannotti R. J., Nansel T. R. School bullying among adolescents in the United States: Physical, verbal, relational, and cyber. – Journal of adolescent health, 2009.
9. Hinduja S., Patchin J. W. Bullying, cyberbullying, and suicide. – Archives of suicide research, 2010.
10. Sharipova Z. "O'smirlar va onlayn xavfsizlik". – Zamonaviy ta'lim jurnali, 2023.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.